

Faol talabalar rag'batlantirildi



26.04.2023

Faol talabalar rag'batlantirildi

Jahon hamjamiyatida va mamlakatimizda "22 aprel - Butun jahon yer kuni" alohida e'tirof etilgan holda universitetimizda hamda sohadagi turli tashkilotlarda an'anaviy tarzda har yili nishonlanib kelinadi. Bu kunni nishonlashdan asosiy maqsad - Ona yerimizni asrashga odamlar e'tiborini qaratish bilan bir qatorda o'sib kelayotgan yosh avlodda tabiatga mehr - muhabbat uyg'otish, atrof - muhitga bo'lgan mas'uliyatini hamda yer yuzida kechayotgan hodisalarga befarq bo'lmaslik tuyg'usini shakllantirishdan iborat.



Shu bilan birga ta'lim maskanlaridagi iqtidorli yoshlarning shu mavzudagi ilmiy-ijodiy ishlarini munosib rag'batlantirishdan iboratdir. "TIQXMMI" milliy tadqiqot universitetida hamkor korxonalar va tashkilotlar bilan birgalikda "22 aprel - Butunjahon yer kuni"ni munosib o'tkazish maqsadida 18-20 aprel kunlari "Sayyoramizga sarmoya kiriting" deb nomlangan iqtidorli talabalar orasida ko'rik tanlovlari va ko'rgazmalar o'tkazildi.



Joriy yilning 25 aprel kuni universitetimizda ushbu ko'rik tanlovlarda g'olib bo'lgan talaba-yoshlarni taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Shaffof o'tkazilgan tanlovlarda g'olib bo'lgan talabalar universitetimiz hamda hamkor korxonalar va tashkilotlar tomonidan pul mukofotlari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.



Tadbirda Kadastr agentligi va uning tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlarga, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligiga, Xalqaro suv resurslarini boshqarish institutiga, Xalqaro qishloq xo'jaligi tadqiqotlari bo'yicha maslahat guruhiga hamda ularning rahbarlariga "22 aprel - Butun jahon yer kuni"ni munosib o'tkazishda hamkorlik qilganliklari uchun "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti rektorit tomonidan tashakkurnomalar taqdim etildi.



YRK fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti

Universitet matbuot xizmati